

## **Yod tanqisligi — muammosi**

*Beshariq Abu Ali Ibn Sino Nomidagi  
Jamoat Salomatligi Texnikumi o'qituvchisi*

***Isaqova Guljahon Sodiqovna***

***Annotatsiya:*** *Yod, qalqonsimon beziing me'yorida faoliyat olib borishi uchun, gormonlari sintezlashtirish, barcha a'zolar va tizimlarning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchiasosiy microelement hisoblanadi.*

***Kalitso'zlar:*** *Yod tanqisligi, qalqonsimonbez, osh tuzi, profilaktika, reproduktiv buqoq.*

Yod tanqishgi kasalliklari insonning eng ko'p tarqalgan yuqumli bo'lmagan xastaliklari sirasiga kiradi. Yod, qalqonsimon beziing me'yorida faoliyat olib borishi uchun, gormonlari sintezlashtirish, barcha a'zolar va tizimlarning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchiasosiy mikroelement hisoblanadi. XX asr oxiri va XXI asr boshlarida jahon hamjamiyati xalqlar taqdiri va o'sib kelayotgan avlod kelajagidan xavotirga tusha boshladi, negaki barchamiz salomatlikning ko'zga ko'rinmas dushmani - yod tanqisligi tufayli yuzaga kelayotgan inson aqliy qobiliyatining buzilishiga guvoh bo'lib turibiniz.

Yod yetishmovchiligi inson salomatligiga bir necha yo'nalisililar bo'yicha zarar yetkazadi, uning eng jiddiy oqibatlaridan biri miyaning me'yorida rivojlanishini buzilishi hisoblanadi. Yod tanqisligi yaqqol ko'zga tashlanadigan ayrim hududlarda, minglab odamlar aqliy zaiflikning eng og'ir darajasi bo'lmish - kretinizmdan aziyat chekmoqdalar.

Yod tanqisligi holatining asosiy sabablari - sotuvda sifatli yodlangan osh tuzining mavjud emasligi, shuningdek, guruhliy profilaktikada qo'llash uchun ishlatiladigan yod preparatlarining kamyobligi hisoblanadi. Buning oqibatida aholi o'rtasida buqoqni ommaviy profflaktika qilish ishlarida uzilishlar sodir bo'lmoqda. Qalqonsimon bez a'zolar faoliyatini, shu jumladan, reproduktivlik

(nasldorlik) vazifasini ham boshqarib turadi. Buqoq xastaligiga duchor bo'lgan ayollarda ko'pincha hayz ko'rish siklining buzilishi, bepushtlik va boshqa anomal (noto'g'ri) holatlar kuzatiladi. Yaxshi ma'lumki, homilador ayol ratsionida yod yetishmasligi, homiladorlikning uch oyi mobaynidayoq bo'lg'usi bolaning miyasi to'laqonli rivojlanmasligiga olib keladi. Qoidaga ko'ra, bunday bolalar aqli zarf bo'lib dunyoga keladi. Yodlangan tuz na rangi, na ta'mi, na hidi bilan odatdagi osh tuzidan farq qilmaydi. Yodlangan tuzdan foydalanish tufayli, yod tanqisligi mavjud ko'plab mamlakatlar tajribasidan ayon bo'lishicha, endemik buqoqning atrof-muhitda va uning keng tarqalishi natijasi bilan bog'liq holatlar shuni o'rsatmoqdaki, yodlangan tuzdan ommaviy ravishda foydalanish orqali ancha sezilarli samaralarga erishilmoqda ekan - buning natijasida aholi o'rtasida buqoq bilan kasallanish holatlarining pasayishi ham sodir bo'lgan. Shu bilan birga, aynan kommunikatsiya tizimlari va yodlangan tuzlarni taqsimlash tarmoqlari mavjud bo'lgan sharoitlarda, yod tanqisligi holatlarini juda qisqa muddatlarda muvaffaqiyat, bilan bartaraf etilishiga erishish mumkin. Shu bilan birga, aynan kommunikatsiya tizimlari va yodlangan tuzlarni taqsimlash tarmoqlari mavjud bo'lgan sharoitlarda, yod tanqisligi holatlarini juda qisqa muddatlarda uvaffaqiyat, bilan bartaraf etilishiga erishish mumkin.

Ijtimoiy tibbiyotning o'ta jiddiy nuqtayi nazarlarini muvaffaqiyat bilan hayotga tatbiq qilish - mamlakat aholisining yod tanqisligi holatini kamaytirish uchun - eng avvalo, davolash-profilaktika, maktabgacha va maktab muassasalari va korxonalarda profilaktik tadbirlar bilan kechadigan majmuiy choralar qabul qilish va olib borilayotgan ishlalar matbuot, radio va televideniye orqali keng yoritilishi, shuningdek, mahalla va viloyatlardagi tushuntirish ishlari bilan uzviy bog'liq holda o'tkazilishi zarur bo'ladi.

YTK (yod tanqisligi kasalliklari)ni bartaraf etish jarayoni nmalum bir qiyinchiliklarga duch keladi. Mazkur faoliyatning hal qiluvchi tomonlaridan biri, yod yetishmovchiligining xavfi va tarqalganligiga diqqatni jalb etish, tuzni yodlashtirish millatning rivojlanishi yo'lidagi muhim qadamlardan biri ekanligi xususidagi bilimlarni tarqatish zaruriyatidan iboratdir. Hukumat tashkilotlarining

to'laqonli qo'llab-quvvatlashisiz,

YTK ni bartaraf etishga bo'lgan har qanday urinish samara bermaydi. Amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, faqat hukumat tomonidan qilinadigan sa'y-harakatlar, qo'llab-quvvatlashlarga ishlab chiqaruvchilarni barcha sanitariya-gigiyena talablariga tegishli ravishda muvofiq keladigan, yodlashtirishni yetarli darajada ta'minlashga qodir bo'lgan yodlangan tuz chiqarishga majbur qila oladigan tegishli qonunlar, qarorlarni qabvvl qinishi va tatbiq etilishi ta'minlashi mumkin ekan. Hukumat va mahalliy boshqaruv organlarining vakillari, amalda tuzni boyitish texnologiyasi amal qilmaydigan mayda ishlab chiqaruvchilarga yordam berishga, o'z mahsulotlarini yodlashtirish uchun uyushmalar tashkil etishga da'vat etilganlar. Ular subsidiya va grantlar ko'rinishidagi havas uyg'otuvchi rag'batlarning yaratilishiga ko'maklashishlari mumkin. Turli martabadagi rahbarlar ushbu tadbirlarning millat salomatligi darajasiga, o'sib kelayotgan avlodning aqliy darajasiga ta'sir ko'rsatishi xususidagi yorqin tasavvurga ega bo'lishlari lozim. 2007-yil. 3-mayda O'zbekistonda "O'zbekiston YTK oldini olish" qonuni qabul qilindi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. "Sog'lom avlod bizning kelajagimiz"
2. D.D. Sharipova, N.M. Adilova, "valeologiya" 2016
3. Z.SH.K avilova "valeologiya" 2016
4. Internet ma'lumotlari